

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirish usullari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Halimov O'ktam**_____

ILMIY RAHBAR:

p.f.n. Bozorova M.Q._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

REJA:

Kirish.

I BOB. O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik – psixologik asoslari.

I.1. O'qituvchida muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari .

I.2. O'qituvchi muloqotida muomala madaniyatining shakllanishi .

II BOB. Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning mezonlari.

II.1. Pedagog muloqotining mezonlari.

II.2. Pedagog muloqotining turli shakllarda rivojlanishi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturining maqsadi ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov mustaqil O'zbekistonda yoshlarning tutgan o'rnini alohida ta'kidlab, har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishishlari o'zlariga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak", - degan edilar. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan unda quyidagilar asosiy vazifalar belgilab olindi:

1. Tayyorlanayotgan mutaxassislarga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratgan holda, o'sib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-

laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish;

Ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyali yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 9 dekabrda 3329-Farmoyishiga binoan tuzilgan Respublika komissiyasiga "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi bajarilishini tashkil etish va uning ijrosi monitoringini amalga oshirish vazifasi yuklandi.

Pedagoglik ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o'qitayotgani va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga katta mas'uliyat va javobgarlikni oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berishi bilan birga, pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim sifatida o'z zimmasiga ko'plab majburiyatlarni olishi zarur.

Haqiqatan ham "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulqatvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir".

Mamlakatimiz va xalqimizning tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga jadal moslashib borishi muhim ijtimoiy omil sifatida ta'lim tizimi, uning mazmunining tubdan o'zgarishiga asos bo'lmoqda. Ta'lim tizimidagi bunday rivojlanish jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qirralarini o'zgartirishga xizmat qiladigan jarayon bo'lib, yosh avlodni kamol toptirish uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda yuksak axloqiy munosabatlar, o'zaro hamkorlik, birbirini tushunish muhitini qaror toptirishda muloqot

ko'nikmalari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'quv biluv jarayonini o'qituvchining muloqot madaniyatini yaratish alohida pedagogik qimmatga ega. Bugungi kunda ta'limning demokratik modelini vujudga keltirish muhim masalalardan biridir. Ta'lim, ayniqsa, o'quv biluv jarayoni demokratik modelining dastlabki elementi o'quvchi shaxsining individual faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq shaxsning birbiriga qaratilgan og'zaki yoki yozma nutqi. Og'zaki hamda yozma nutq og'zaki yoki yozma matn shaklida ifodalanadi. Muloqot shaxslararo o'zaro fikr almashinish vastasidir.

Ma'lumki, bugungi kunda o'quvchining ham individual, ham umumiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb muammo hisoblanadi. Buning uchun ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan aqliy rivojlanish dinamikasini o'stirish, o'quv biluv jarayonida barcha o'quvchilarning bilim olishi va rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ko'lamini kengaytirish zarur hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o'z bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirish usullari”** deb tanlashni lozim topdik.

O'qituvchining nutqi muloqot odobi to'g'risida Ibn Sino, Beruniy, A.Navoiy, A.Avloniy kabi mutafakkirlar ta'limotida ham alohida e'tibor qaratilgan.

Zamondosh olimlardan S.Temurova, M.Ochilov, M.Davletshin, E.Xidirov, kabi pedagog-psixolog olimlar tomonidan turli xil yo'nalishda o'qituvchi muloqoti nutqi va muomala madaniyatiga e'tibor qaratganlar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Pedagog muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik asoslarini belgilash hamda mazkur ko'nikmalarni izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini aniqlash.
2. Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik-didaktik imkoniyatlarini belgilash.

3. Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakli, vositalari, usul va metodlarini aniqlash.

4. Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirib borishga yoʻnaltirilgan ilmiymetodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv biluv jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Pedagogning muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakli, vositalari, usul va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki, axborotlar oqimi keskin rivojlanib borayotgan, ta'limga turli xil texnologik yondashuvli munosabatlar boʻlayotgan davrda oʻqituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish oʻziga xos amaliy tajribaga, amaliy koʻrsatmaga egaligi mazkur ishdan barcha oʻqituvchilar foydalanishi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. Bular Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili toʻgʻrisida”gi, “Ta’lim toʻgʻrisida”gi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”, “Pedagogika fani konsepsiyasi”, Oʻzbekiston Respublikasi hukumati va Xalq ta’limi vazirligining ta’limni rivojlantirish toʻgʻrisidagi qaror va farmoyishlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma’ruzalaridagi umumiy oʻrta ta’limni rivojlantirish borasidagi fikrlari, yondashuvlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 boʻlim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami () sahifani tashkil qiladi.

I-BOB. O'QITUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK ASOSLARI.

I.1. O'qituvchida muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari .

Pedagogik muloqot va uning ahamiyati. Muloqot inson faoliyatining ruhiy Hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi, «Shahslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'yfikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shahslar aro munosabatlarni, muloqot madaniyatini hay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida etakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shahs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati mislsiz».¹ Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida birbiri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Har bir shahsning jamiyatda ado etadigan faoliyati o'zaro munosabat va ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish, avvalo odamlarning birbirlari bilan til topishish, birbirlariga turli hil ma'lumotlarni uzatish, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shunday ekan, har bir shahsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir harashda osonga o'hshagan shahslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti davomida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psiholog B.F.Parigin shunday yozadi :

a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;

¹ V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent. 1994 yil. 35bet

- b) individlar o'rtasidagi ahborot almashinuv jarayoni;
- v) bir shahsning boshqa shahsga munosabat jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) birbiriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;
- e) shahslarning birbirini tushunish jarayoni.

Muloqot o'z hususiyatlariga ko'ra shakl va ko'ri nishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi.²

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala odobi. O'qituvchi va o'quvchi, domla va talaba o'rtasidagi munosabat va muomala madaniyati ularning fe'latvori, hulhi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasbidan, o'quvchisidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yo'qligini, oilaviy munosabatlarga dahldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi yo'qligini yaqshi anglaydi. Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi. O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. (Biz o'z ishimizning bir mavzusini «O'qituvchi nutqi — pedagogik mahorat shartidir» deb nomlaganmiz, u mavzuga o'qituvchi nutqi haqida to'liq tafsilot berilgan. H.B.). Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin.

² «Halq ta'limi» jurnali, 2003 yil, 3son, 48bet

Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Ha» soʻzini aytishning 50 dan ortiq uslubi bor, «Yoʻq» soʻzini ham shuncha uslubi bor, ammo bu soʻzni yozishni faqat bir uslubi bor».³ Bu fikr zahirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim, maʼno yashiringan. Oʻqituvchi muloqotining negizida soʻz, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir oʻqituvchining saviyasi, maʼnaviy dunyosi, madaniyatiga asoslanadi.

Oʻqituvchining muloqot madaniyati nafaqat shahslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan boʻlsak, bugungi kunda oʻquvchi, talabalar feʼlatvorini oʻrganish, ularning birbirlariga mehmuruvvatli boʻlishga oʻrgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Atoqli adib B.Shou soʻzlari bilan aytganda: «Biz hozir havoda hush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni oʻrganib olgan boʻlsakda, bizga bir narsa — insonlardek yashashni oʻrganib olish etishmaydi». Artur Konon Doyl asarining qahramoni, mashhur izquvar Sherlok Holms taʼkidlaganidek: «Har bir inson oʻz hususiyatiga koʻra hal etilmaydigan jumboq»dir. Kishilar hulqi, feʼlatvori bilan birbirlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi oʻhshashlik maʼlum darajada saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashqi turqitarovatigina, balki ichki olami, maslagi, insoniy qiyofasi, hozirgi koʻrinishi uzoh tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot zahirida esa kishilar oʻrtasidagi muloqot hamda muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli oʻqituvchining muloqot madaniyatida ham oqilona ehtiyojni anglab olish muhim vazifadir.

Oʻqituvchining oʻquvchilar bilan muloqot olib borish yoʻllari. Oʻqituvchining ish faoliyati davomida oʻquvchilar bilan muomalamunosabatlari katta oʻrin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat toʻplagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini oʻzlashtiradi. Oʻqituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shahs

³ Halq taʼlimi jurnali, 2003 yil, 3son, 49bet

bo'lib hizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urfodat mezonlaridan saboh beradi. O'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bo'lib qolmaydi. O'zining qo'pol muomalasi bilan o'quvchini o'qishdan sovitib, dilini ranjitadigan o'qituvchilar ham uchrab turadi, albatta. hayotda, amaliyotda bunga ko'plab misollar topiladi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' orttira olmaydilar, aksincha, o'zlariga ham bolalarga ham zarar etkazadilar. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning hulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida bu ishlarning hususiyati, bajarish jarayoni, natijasi haqida to'liq tushuntirishiga bog'liqdir.

Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishga to'g'ri keladi: o'z ishi jarayonida o'qituvchi qar bir o'quvchining qadrqimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonchi;

bolaga mehribon, hamho'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lish; bolalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik taktni saqlash.

O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab o'quvchilari, o'quv yurtlarining pedagog hodimlari, professor o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog hodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadrqimmatlarini himoya qilishlari: odob-ahloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba, o'qituvchi o'quvchi shahsining qadrhimmatini asrashlari; bolalarni mehnatga, qonunlarga, otaonalarga, ma'naviytarixiy, madaniymilliy va

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrofmuqitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shahsiy namunalari bilan umuminsoniy ahloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaqshilik va boshqa hayrli hislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning deyarli barcha asarlarida, so'zlagan nutqlarida o'zbek halqining ko'p asrlik ma'naviymilliy, qadriyatlari, ma'naviyatini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Imom al Buhoriy, Imom at — Termiziy, Bahouddin Naqshband, Azzamaqshariy, Najmiddin Kubro, Axmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Sulaymon Bohirhoniy kabi mutafakkirlarning bebaHo merosini, Al Horazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Mirzo Ulugbek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jaHon fani va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini — bu otabobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham diyonat, ham ma'rifatdir.

Tarihga nazar tashlar ekanmiz, din odamlarni o'zo'zini idora etishga, ijobiy hislatlarni ko'paytirib, halos bo'lishga chorlaganiga guvoh bo'lamiz. Imon e'tiqod, poklik, halolik, adolatdini bo'lgan Islom kishilarni ohir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuchquvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, birbiriga mehroqibatini oshirgan. «Demak, din halq ma'naviyatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan. Bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborga tutishimiz lozim.⁴

Islom dini o'tmishda yaratilgan barcha bilimlar, insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida mujassamlashtirdi. Qur'oni Karim

⁴ I.A.Karimov. O'zbekiston siyosiyijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyillari. «Halq so'zi» gazetasi. 1995 yil. 24 fevral

va Hadisu Sharifda bayon etilgan yaqshilikka, ezgulikka undovchi G'oyalar, insoniyat tammaduni hazinasini boyitdi, uni abadiyatga dohil qildi.«Pedagogik mahorat» fanimizning 3mavzusida «O'qituvchi irodasi, sabrtoqati, o'zo'zini idora qilish, Histuy qularini, kayfiyatini boshqara olish, rostgo'ylik» kabi talablar mavjud. Bu talablarni bajarishda islom ta'limotidan foydalanish qo'l keladi. Islom ta'limotida yaqshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lib, Olloh insonga o'z ne'matlarini ehson qilganidek, inson ham boshqalarga yaqshilik Qilish, sahovatli bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. E'tiqodli sabrtoqatli bo'lish yuksak ahloqiy fazilat sifatida ulug'lanadi. Sabr hamma fazilatlarining onasi, har bir fazilatning asosidir, Bu fazilat qiyinchiliklarni yo'qotish yo'lida uchraydigan muammolarga, insonlardan kelayotgan aziyatga bardosh berish fazilatidir.Insonga hos olijanob sifatlardan yana biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati va aziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Insonlar ko'pincha hato qiladilar va hatolarning kechirilishiga muhtojlik sezadilar. «Yomonlikni yaqshilik bilan kaytaringlar» deyiladi.

Qur'oni Karimda. Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'ylamasdan, ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. O'qituvchining chiroyli so'zi esa yaqshi muomala, mehroqibat kalitidir. O'qituvchi shirinso'zligi va hushmuomalaligi shartlaridan biri ovozni baland ham, past ham qilmay, me'yorida gapirishdir. Shirinso'zlik va go'zal munosabat hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa, tinimsiz shirinso'zni mashq qilish, kitob o'qish va ahborotlarni tinglash, ko'p eshitish va tahlil qilishdir. Muomala o'qituvchining kimligini ko'rsatuvchi ko'zgudir.Pedagogik mahorat fani o'qituvchisining maqsadlaridan biri — komil insonni o'qitish va tarbiyalash natijasidir. Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatga ega, odamzodga hos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni qamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azalazaldan halqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi

yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniHsa teran ifoda etilgan.Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbim, olam uyidin senga farz o'lmagay qamnoq chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak biaynih, erur ham momdin nopok chiqmoq», degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Erkin fuqorolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu hoyalar hayotiy e'tihodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shunday ekan yangilanayotgan jamiyatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'limtarbiya dasturini tubdan isloh, Qilish, ta'limtarbiya jarayonida milliy, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanish ahamiyati tobora ortib boraveradi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari. (Biz V.A.Kan — Kalikning pedagogik muloqot haqidagi o'qituvchi va o'quvchilar uchun zarur bo'lgan maslahatlarini to'liq keltiramiz)⁵.

Insonning mehnat faoliyati, meHnat, bilish, muloqot ... Biz ular haqida ko'p gapiramiz, tahlil qilamiz. Biroq aqlhushni bir erga to'plab, astoydil o'ylab ko'radigan bo'lsak, qaroyib bir manzaraga duch kelamiz. Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt sarflaydi. Biroh insonlararo muloqotga Hech kim hech qaerda mahsus o'rgatilmaydi. Bizda muloqot hilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab Hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi.

Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatishga harakat qilamiz.

1. Pedagogik jarayon bizning bolalar bilan munosabatimizga asoslanadi, zotan huddi shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir «pedagogik harakat»ga takrorlanmas shahsiylik ma'nosini beradi. O'quv materiali yoki pedagogik talabni takrorlanmas hissiyotlar yig'ndisi bilan bezaydi. Bularsiz esa bola qalbi sirini hech qachon anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan

⁵ V.A.Kan — Kalikidr. «Pedagogicheskoe tvorchestvo», Moskva., 1990 god, izd. «Pedagogika»

munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tuzishga Harakat qiling. Ular pedagogik jarayonga, qolaversa har bir bola shahsiga sezilarli darajada muntazam ta'sir etib holadi. Esda tuting, yozgan har bir konspekt, matn ortida tarbiyaviy ish rejasi zahirida sizning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingiz masalasi yashirinib yotadi.

2. Pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsad va vazifalar bilan o'ralashib holmaslik zarur. Bunday cheklanish o'qituvchining «o'z tashabbusi» bilan muloqot qilishga olib keladi. Uning so'zlarida hukmronlik ma'nosini anglash qiyin emas. «Bu men uchun zarur. Bu pedagogik maqsad va vazifalar bilan bog'liq.


Dastur va rejalaridan kelib chiqadi» va boshqalar. Pedagogik muloqotning «o'z tashabbusi» tashkil qilishi o'qituvchi faoliyatini hat'iy cheklab Qo'yadi, o'quvchi uning harakat doirasidan tashqarida holadi Mashhur pedagoglarimizdan ko'p chiligi shunday deydi: «Biz kattalar, o'qituvchilar bola larga, asosan bizga hush keladigan narsalarni bajarishga ilishga majbur qilamiz, ularning ko'ngillariga harab ish tutish esa ko'p qollarda pedagogik faoliyatimiz doirasi dan tashqarida qolib ketadi». Shuning uchun bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra «bola tashabbusi» asosida ish tutgan ma'qul. Shunda bola doimo bizning pedagogik faoliyatimiz doirasida bo'ladi.

Shubha yo'q, muloqotni o'qituvchi tashabbusi bilan tashkil qilish oson. Ammo pedagogik muloqot — bu murakkab inshoot, demak uni muayyan qonun asosida ko'rmoq kerak. Bu o'rinda o'quvchi tashabbusi bilan boshlangan muloqot yaqshi natija beradi, u o'quvchi shahsini to'laroq aks ettiradi, pedagogik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlaydi.

Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutq imizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muhimdir.

Nutqni aniq yo'naltirish zarur deganda nimani nazarda tutmoq kerak. Avvalo, o'quvchining shahsiy hususiyatlarini, uning sinfda, sinfdoshlari bilan munosabatda egallaydigan o'rnini hisobga olish darkor. Shunga muvofiq nutqni tez

ifoda etish, fikrlarning ketmaketligiga erishish, uning mantiqqa to'g'ri kelishini e'tiborga olish o'qituvchining asosiy vazifasidir.



Shuni ham ta'kidlash joizni, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni ahborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan — ahborot ayirboshlash, o'zaro munosabatlarni tashkil Qilib, bola shahsini o'rganish, kattalar va bolalarning birbiriga ta'sirini Hisobga olish va boshHa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilibilmay amal qilmasligimiz mumkin. Biroq buning oqibati ertasidayoq ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shahsini o'rganib borishi zarur.

I.2. O'qituvchi muloqotida muomala madaniyatining shakllanishi .

Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, U o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushunilganda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettirib, ijtimoiy protsessual jubhasini ifodalaydi. Muomalaning eng muhim tarkibi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi.

Muomala - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- **Kommunikativ** (bir tomonlama axborot o'zlash). Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq faolyaitiga bevosita murojaat qiladilar.

- **Interaktiv** (ikki tomonlama ta'sir) - muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakat va hulq atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

- **Perseptiv** (o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo'ladi, ya'ni ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok g'ilinadi.

Muomalaning har uchala tomonini birlikda yaxlit olib qarash, u hamkorlik faolyaitini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari tariqasida namoyon bo'ladi.

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli yechish mumkinki, qachonki o'qituvchi bilan o'quvchilar (talaba) hamkorlik faoliyatiga kirisha olsa, shaxsni

shakllantirishning maqsad va vazifalariga o‘zaro ta’sir va tushunuvchi yo‘lga qo‘ya olsa shundagina pedagogik muomala amalga oshadi.

Pedagogik muomala - bu o‘qituvchining talabalarga ta’sir o‘tkazish usullarining muayyan tizimidir.

- hamkorlik ishtirokchilarning o‘zaro axborot almashuvi;
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o‘qituvchi tomonidan talabalar bilan o‘zaro ta’sir va o‘zaro munosabatni tashkil qilish;
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishning rejalashtirish va o‘tkazish funksiyasini bajaradi.

Pedagogik faoliyatda muomala birinchidan, o‘quv faoliyatini yakka hol bajarishning vositasi, ikkinchidan tarbiya jarayonini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, uchinchidan ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi o‘qituvchi bilan talabalarning o‘zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, turtinchidan talaba individualligini takomillashtirish, iste’dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi, beshinchidan yakka hol faoliyatning sub’ekti sifatida ruyobga chiqarish asoslidir.

Pedagogik muomala deganda o‘qituvchi va talabalar (o‘quvchi) jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimi anglashinib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishi, ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish o‘zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi.

Muomala jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonun qoidalar muhim ahamiyatga ega. Bu nazoratda 3 ta muhim ta’sir etish vositasi ishtirok etadi: ma’qullamaslik, qoralash va jazolash.

Muomalad talaba xulqi ijtimoiy qonun qoidalar maromiga zid kelsa, u holda uni hatti harakati qoralanadi, e’tiroz, tanbeh, eslatish kabi vositalar bilan ta’sir o‘tkaziladi. Muomala vaqtida odob, odoblilik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta’minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o‘zaro ta’sir, o‘zaro idrok qilish) to‘g‘ri amalga oshirishni idora qilib turadi.

Har bir fikr bildirilganda muloqotdan qabo'l qilinayottani fahmlab turishi tashqi ko'rinishlari, o'zgarishiga e'tibor berish, o'z so'rash, tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi.

Muomala jarayonida bir hatti-harakat o'ylanmay bildirilgan fikr, ortiqcha imo-ishora odobsizlikni keltirib chiqaradi.

Odobsizlik esa nizoli vaziyat, qarama-qarshilik ziddiyatli holatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o'zini vazifasini nizoli vaziyatga bushatib beradi. Pedagogik muomalada psixologik aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega, chunki talaba bilan o'zaro munosabat, hurmat, ishonch negizida quriladi. Bunda o'qituvchi talabaning hyqq va majburiyatining uning maktabda, jamoada, oilada bajaradigan roli nimada iborat ekanligini e'tibordan chetga chiqarmasligi lozim.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarish uslublari. Psixologiyada rahbarlarning o'z jamoasi a'zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy-psixologik portretlari ishlab chiqilgan. Rahbarlarning muloqotni boqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqotda o'qituvchi rahbarligi uslubi tarzida kurish mumkin.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim-kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli-buyruq, ko'rsatma, instrUksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan-kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim" kabi.

Demokratik uslub. O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga yetkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. o'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z- o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hicobga olib vazifalarni optimal

tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag‘batlantiradi, tashabbusin quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo‘ladi.

Liberal uslub. o‘qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko‘rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o‘zini olib qochadi.

Eng yaxshi uslub - demokratik uslub. Miqdoriy ko‘rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo‘lishi mumkin, lekin ishlash ijtiyoqi rahbar yo‘g‘ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo‘ladi, javobgarlik hissi, o‘z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi. Eng yomon uslub - liberal uslub bo‘lib, bunda ham ish kam bajariladi, ham sifat yomon bo‘ladi.

Avtoritarizm o‘qituvchi yetukmasligini, uning axloqiy va siyosiy tarbiyasizligini, pedagogik madaniyati pastligi bilan xarakterlanadi.

O‘qituvchilar maktab amaliyotida axloq tarbiyasida qo‘llashi mumkin bo‘lgan quyidagi asosiy pedagogik uslub turlari mavjud:

- Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondoshish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o‘quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni to‘zishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog - o‘qituvchi - o‘quvchilar kollektivi shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o‘quvchilarning tashabbuskorligi, o‘z-o‘zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik- idividual imkoniyatlarini, qobiliyatini ruyobga chiqarishga zamin yaratadi.

- O‘quvchilar bilan do‘stona munosabat - pedagogik uslub. U o‘quvchi shaxsini hurmat qilish va talbchanlik mezoni asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o‘z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o‘quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo‘llamasligi, o‘quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo‘yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko‘rib o‘tgan birinchi uslubga utishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo‘lishi mumkin. Aksincha, o‘qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatta ega bo‘lishga intilmasa, o‘z fanidan bilimi sayoz bo‘lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommuniaktiv qobiliyatini

takomillashtirib bormasa o'quvchilar uni "katta birodar", "konsultant" sifatida asta-sekin tan olmay qo'yishadi. Pedagog o'zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi yetakchilik rolini yukotib, o'quvchilar hurmatini yengil yo'l bilan qozonmoqchi bo'lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

- Pedagogik muomala – masofa uslubi. Bundan tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o'qituvchilar ham foydalanishiga harakat qilishlari mumkin. o'qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o'quvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo'yib, uni bajarilish jarayonini ko'zatish, xatolarini to'zatish, baholash bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday pedagoglar ukitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi, tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda hatti-harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o'quvchilari ahloqiy bilimlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Lekin bu xil bilimlar amaliyotda kam qo'llaniladi.

- qo'rquvga asoslangan uslub. Bundan odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar foydalanishga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Bolalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub maktab islohoti manfaatlariga mutlaqo mos emas.

- Ustamonliq qilishga harakat qilishi uslubi. Uni odatda ma'lum bilimlarga ega bo'lmagan, pedagog sifatida o'ziga ishonchi yuk, sinfda o'quvchilar kollektivini boshqara olishga ko'zi yetmagan ayrim o'qituvchilar qo'llashga harakat qiladilar. Ammo o'quvchilar ertami-kechmi bu nayrangbozlikning oxiriga yetadilar. Buning oldi olinmasa sinfda tarbiyaviy ishlarga jiddiy putur yetishi mumkin. o'quvchilar hurmatini qozonishga intilish pedagogik maqsad bo'libgina qolmay, balki tarbiya maqsadlarini amalga oshirish vositasi hamdir.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi pedagogik uslublar tarbiyaviy faoliyatda yaxshi samara beradi; uchinchi, turtinchi va beshinchi pedagogik uslublardan pedagoglar iloji boricha o'zlarini halos qilishlari kerak.

O'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi uning prinsipialligi va talabchanligi o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga, ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obru, e'tibor qozonmog'i lozim.

Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z-o'zini boshqarish (ham bilish faolyaitida, ham xulq atvorda);
- o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash shakllanadi.

Do'stona muomala talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mUkammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi muallimning ahloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala - munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plangan bilimlarni axloqiy tajribani egallab oladi. Muallimlik pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni ukitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatleri xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalr bilan muloqotda bo'ladi.

Bolalar ta'lim tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini o'zlashtiradi. o'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida o'qituvchilar o'rtasidagi muomala munosabatlar insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala munosabatlar o'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonunlariga (o'qituvchi odobining) asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar

jamohorning fikri asosida boshqariladi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bir kishining ishi emas, uning pedagoglar jamoasi bajaradi. Ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun maktab, o'quv yurtining butun jamoasi, hamma o'qituvchilar - birlashib harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning hatti-harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos bo'lmog'i kerak. Jamoaning ayrim o'qituvchiga ta'siri pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi, munosabatlariga bog'liq. Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lishini taqozo etadi. Bu o'qituvchi odobining qonuniyatlaridan biridir. Darsda o'quvchilarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi, axloqiy munosabatlar darajasini ko'rsatadi. Maktabda o'quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagoglar jamoasida o'zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadga o'qituvchilarning axloqiy saviyasiga bog'liq. Pedagoglar jamoasida o'zaro muomala munosabatlar kollegiallik va yakka boshchilikka, intizomni coqlashga asoslanadi. Pedagogik jamoada sog'lom aqliy ruhiy muhit mavjud bo'lsa, axloqiy norma va yo'l-yo'riqlar bajarilibgina qolmasdan balki ular har bir muallimning e'tiqodiga odatiga aylanadi. Pedagoglar jamoasining shaxs va kollektiv uchun foydali ishlariga asoslangan ta'sir natijasida muallimning ma'naviy qiyofasida chuqur sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Ijtimoiy burchni to'g'ri anglash, xulqni to'g'ri baholay olish odatda shakllanadi, jamoada o'zaro muomala yaxshilanadi. Pedagoglar jamoasidagi muomala munosabatlar bu oddiy do'stlik va qo'shnichilik emas, balki umumiy ish uchun javobgar jamoa a'zolarining mas'uliyatli bog'lanishlaridir.

Pedagoglar jamoasida ijodkorlik muhiti muomala odobini shakllantirishning muhim shartidir. Muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli katta. Ular muallimning o'zini oshirish jamoat ishlarida faol qatnashirish yo'li bilan o'qituvchining axloqiy va pedagogik madaniyati, mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadi. Muallim har bir so'zini o'ylab gapirishi, boshqalarning,

kasbdoshlarining soʻzi, fikri, mulohazalarini tinglab bilish ham pedagogik jamoada oʻzaro muomala munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

3.Oʻqituvchining oʻquvchi bilan boʻlgan muloqatida ishonitirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish.

Pedagogning tutgan yoʻli. Agar oʻqituvchi oʻquvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yoshiga qarab turlicha boʻladi) pedagogik ta'sir koʻrsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Mazkur holat oʻquvchilar bilan muomala sohasida oʻqituvchining asosiy yoʻl-yoʻrigʻidan iborat boʻlib, u oʻquvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga monand boʻladi. oʻquvchilar yoshiga muvofiq ravishda oʻqituvchi holati (tutgan yoʻli) ning oʻzgarish mezon - bu oʻquvchilar jamoasiga nisbatan tashqi holatdan ma'lum darajada ichki holatga oʻtish, oʻquvchilarga bevosita ta'sir koʻrsatishning kamayishi va bevsita ta'sirning ortishi jamoani boshqarish vazifalarining bir qismini oʻquvchilarni oʻz-oʻzini boshqarish organlariga berish, har bir bola shaxsining ichki olamiga koʻproq ta'sir koʻrsatishiga oʻtishdir.

Turli yoshdagi oʻquvchilarning muomalasiga ta'sir koʻrsatish sub'ekti boʻlgan oʻqituvchi tutgan yoʻlning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. quyi sinflarda oʻqituvchi tashkilotchi boʻlib maydonga chiqadi. (Toʻzuvchi, ta'sis etuvchi). Pedagogning kichik yoshdagi oʻquvchilar hayotiga ta'sir koʻrsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi oʻquvchilar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi boʻla oladigan bolalarning faol ijodkorlik bilan toʻla hayotini tashkil etib, ular orasida oʻzaro xayrixoxlik, gʻamxurlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obru - e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni oʻz doʻstlari deb qaboʻl qilishga mayildirlar. Bu eng yaxshi munosabat boʻlib, u tarbiyachining tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi.

Oʻsmirlar ukiydigan sinflarda oʻqituvchining holati rahbar degan soʻz bilan ifodalanishi mumkin. U koʻrsatuvchi, murabbiy, boshlovchi, sifatida ish koʻradi. Pedagoglarning oʻsmirlarga ta'sir koʻrsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat oʻz-oʻzini tashkil

qilishning ko‘proo‘ ulushini o‘ziga qamrab oladi. Bu esa o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida o‘quvchilarga qo‘yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. o‘smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzusiga nisbatan o‘qituvchi va o‘quvchining bir xil yo‘l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai- nazaridan qiziqarli bo‘lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo‘lishi zarur, yoxud jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks-holda talab samarasiz bo‘lib qoladi.

Katta yoshdagi o‘smirlarga nisbatan o‘qituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi. Bunday holat shuni taqozo qiladiki, o‘qituvchi faoliyatining shunday sohalorida, ya’ni bevosita aralashuv kam samara beradigan sohalarda o‘quvchilarning o‘zaro harakatlariga alohida e’tibor berish lozim, bu esa pedagogdan katta yoshdagi o‘smirlarga o‘ziga xos homiylik qilishni talab etadi, bu avvalo ularning bu sohadagi ahvoli yaxshi bo‘lishi haqida bevosita g‘amxurlikni o‘z ichiga oladi. Shu munosabati bilan o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan munosabati xarakteri ko‘p jihatdan pedagoglarning katta yoshdagi o‘smirlarning o‘ziga xos bo‘lgan katta bo‘lishga intilishdan iborat yosh xususiyatini qanchalik hisobga olishiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘quvchilarning katta bo‘lib qolganligini e’tirof etishmagach, ularning bir qismi o‘qituvchilar bilan o‘zlarining chinakam qiyofalarini yashirib muomala qila boshlaydilar. Ular ba’zan o‘qituvchilarga ma’qul tarzda o‘zlarini tutishga intiladilar. Shunday qilib, tarbiyalanuvchilarda moslashuvchanlik va nosamimiylik kabi xususiyatlar shakllannishi uchun zamin yaratiladi. Bu esa o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’sirini qiyinlashtiradi, ularni to‘lqinlantirayottan muomalalarni hal qilishga yordam ko‘rsatish, ya’ni homiylik pozitsiyasini ruyobga chiqarish imkoniyatidan mahrum etadi.

Yuqori sinflarda o‘qituvchining holati konsultant, ya’ni muayyan sohada maslahatlar beruvchi mutaxassis so‘zi bilan ifodalanishi mumkin. o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish mazmuni o‘qituvchi ularning faoliyati bilan bog‘liq ravishda beradigan tavsiyalar bilan belgilanadi.

O'qituvchi bilan o'quvchi ob'ektiv ravishda turli avlod vakillari hisoblanadilar. Har bir yangi avlod oldingi avlodlarga nisbatan bir muncha yangi sharoitda hayotga kirib keladi. o'quvchilarning o'zlari ham avloddan-avlodga o'zgarib boradilar. Buning oqibatida har bir yangi avlod ota merosini passiv ravishda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradilar. Bu o'zgartirish katta avlodlar bilan doimiy muloqotda bo'lgandek sodir bo'ladi. o'qituvchi yuqori sinf o'quvchilari bilan muloqot yo'li bilan muomala qilganda utmish g'oyaviy merosining muhim ahamiyatini tasdiqlab borishi lozim. Bunday holda u keng muammolar bo'yicha maslahatchi bo'lib qoladi va yuqori sinf o'quvchilariga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishontirish va ma'qul qilish. Ishontirish faqat o'qituvchi bilan muloqotga emas balki boshqa hollarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. (o'rtacha qobiliyatli, sekinlik bilan ish qiluvchi o'quvchi borgan sari yomon o'zlashtiradigan bo'la boradi. o'qituvchining "Nima uchun o'zlashtirmayapsan?" degan savoliga "Mening kallam ishlamaydi", deb javob beradi. Suhbatdan aniq bo'ladi-ki, uyda vazifa bajarganda buvisi yonida o'tirgan va uning sekin harakatlanishi va sekin fikrlashidan zerikaib "Sening kallang ishlamaydi", degan ekan. Bola bu fikrga o'zini ishontirib yomon o'zlashtira boshlagan.

Ishontirish ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. o'qituvchi o'quvchida ijobiy holat - uy vazifasi tayyorlashga shakllanishini xoxlaydi. Uning ko'ziga ifodali qarab, hUkmron tovushda deydi: "Sen yaxshi ukishni xoxlaysan va ukiy olasan. Bugun soat Z da dars tayyorlashga o'tirasan".

Shaxs rivojlanishiga o'z-o'zini ishontirishning o'rni muhimdir. o'z-o'zini ishontirishning yuksak darajasini biz yoglar faoliyatida kurishimiz mumkin.

O'quvchi o'z kamchiligini bilib, uni to'g'rilashga kirishishini ko'rsak o'z-o'zini ishontirdi deb bilamiz. Ba'zan esa salbiy holatlar, sifatlarga o'z-o'zini ishontirish ham bo'ladi.

O'z-o'zini ishontirish tarbiyaviy maqsadlarda qo'llash faqat yetarli darajada rivojlangan shaxsda qo'llash mumkin.

Ishonuvchanlik - bu kishining o'z xulqini boshqa kishi yoki kishilar guruhi talabi bilan o'zgarishi.

Ishonuvchanlik - nerv sistemasining normal holati. Lekin uning aks etishi turli hollarda turlicha. U yoshga (yoshroqda yuqoriroq), jinsga (ayollarda ishonuvchanlik), intellektga (ma'lumot oshishi bilan inonuvchanlik pasayadi), sog'liq holatiga (charchaganda, kasallikdan so'ng ishonuvchanlik yuqori bo'ladi) va boshqa omillarga bog'liq. Bundan tashqari ishonitiruvchi shaxsning roli ham muhim.

O'quvchilar bilan muomala odobi. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi muomala-munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda yetkachi kishidir. Unga yosh avlodni ukitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi.

Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar – yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o'zlashtiradi. o'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi ham mumkin.

Respublikamiz o'qituvchilari orasida o'z ishining ustasi, Xalq o'qituvchisi, Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi deb tan olingan, ota-onalar, yoshlar e'zozlab Ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go'zallik, haqiqat, odob axloq nurini singdira olganliklari, xushmuomala bo'lganlari uchun ham bunday obro' va hurmatga erishganlar.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. o'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini ukishdan sovutib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlari ham uchrab turadi. Pedagogik tajribada bunga misollar ko'plab

topiladi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga to'zatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri bolaga bo'lgan ishonch bilan unga nisbatan qo'yilayotgan talablarning birligidadir. Bu qoida pedagogik amaliyotda ko'p marta sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o'qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga xuda-behuda duk urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabo'l qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo'pollik qilishga «majbur» bo'ladi, o'quvchi muallimning o'rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o'zini tutolmay qoladi. Muallim o'z talablarini, hatto qo'pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilyapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to'g'ri yo'lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganiga ishonadi. Sa'diy Sheroziyning «Guliston» (Toshkent, 1968) asarining "Tarbiyaning ta'siri bayoni" bobidagi hikoyatlarda: Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asaridagi «Mudarrislar to'g'risida», «Maktabdorlar to'g'risida»gi maqolatlarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamohangdir.

Bunday holatlar ko'pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomala-munosabatlar jarayonlarida sodir bo'ladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, bunday bola odatda, nosog'lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo'lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xush muomalaga, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan sabr-toqatli, bardoshli, kechirimli bo'lish zarurligini ham ta'kidlaydilar.

Jismoniy jarohat olgan bolani ukiuvchi jazolamasligini hamma biladi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog'ini jarohatlagan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba'zan qalbi, ruhi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida buni hamma o'qituvchilar e'tiborga oladimi? Afsuski, yuk. «Bola javob berishni xohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan» deb hisoblab, hamma o'quvchilarga bir xil talab qo'yish, bir xil muomala qilish hollari ko'plab uchraydi. Ba'zan boladan hatto u bajara olmaydigan ishlar ham talab etiladi. Ayrim o'qituvchilar bolaning oilasidagi, ota-onasidagi nuqsonlari uchun ham uni ayblashga urinadilar.

Voqeyiy hikoyat. Tukqizinchii sinf o'quvchisi Karim bir kuni darsni tayyorlamay keldi. Muallima unga «ikki» baho qo'ydi. Oilada Karim onasi bilan yashaydi, otasi boshqaga uylanib ketgan. Muallima Karimga «yomon» baho qo'ygani yetmagandek, unga zarda bilan: «Otang sizlarni bekorga tashlab ketmaganga o'xshaydi, bunday boladan qochib qutulishdan boshqa chora yuk», - deb uni sinfdan chiqarib yubordi. Muallimning bu muomalasi o'quvchini tahqirlash bilan birga sinfdagi boshqa o'quvchilarning ham noroziligiga, nizo kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Talabchanlik o'qituvchi odobining normalaridan biri hisoblanadi. o'qituvchining bolaga qo'yayotgan talabi adolatli bo'lmog'i kerak. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur ishonchi ifodalanadi. Bu insoniylikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, o'ziga va jamiyatga foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. Odatda, bolalar murosasozlik va olihtagarchilikni - betayinlik, o'ta muruvvatni – ma'suliyatsizlik, prinsipsizlik deb tushunadilar. Aksincha yaxshi niyat bilan qilingan oqilona talabchanlik - qattiqqo'l muallimga bolaning hurmati va minnatdorligini oshiradi.

Voqeyiy hikoyat. To'liqin maktabda quyi sinflarda past baholar olib ukirdi. Sakkizinchii sinfga o'tganida fizika o'qituvchisi D. Sh. juda talabchan, hyech kimni erkalatib qo'ymaydigan kishi bo'lib chiqdi. Muallim uni doskaga chiqaradi.

To‘lqin fizikaga doir masalani yecha olmaydi. o‘qituvchi unga boshqa masalani beradi va o‘sha boshlagan usuli bilan yechishni aytadi.

Nihoyat u masalani to‘g‘ri yechadi. o‘qituvchi: «Mening fikrimcha To‘lqin, sen uchun bu oddiy masala. Sen murakkabroq masalalarni ham yecha olasan, faqat, ko‘proq ishlash kerak» deydi. Maktabni bitirgach, texnika universitetiga ukishga kirdi. Muhandislik kasbini egalladi. Bir kuni To‘lqin o‘quvchilik yillarini eslab bunday dedi: «Fizika o‘qituvchimiz qattiqqo‘l, talabchan edi. U bizni boshqa fanlarga qaraganda fizikani ko‘proq ukishga majbur etardi. Biz uning aytganlarini bajarar edik, chunki u yaxshi odam, hatto do‘stimiz edi».

II BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MEZONLARI.

II.1. Pedagog muloqotining mezonlari .

Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Hatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda etakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday huquqni qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'si emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, etakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiqsin. Sinfidagi ruhiy muhitni sezishga harakat qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quv-tarbiya jarayoni mahsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shahs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga harakat qilishi va bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi kerak. Masalan: sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi, matematikani yaqshi ko'rgani uchun ham, bu darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa, quloq solish bilan kifoyalanib, ikki ko'zini o'sha javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi. U chiroyli yoki yo'qligi haqida o'ylayapti. Huddi shu dam matematikani uncha hushlamaydigan, ammo sportni jondilidan sevadigan uchinchi o'quvchi yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning «M» harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi horga tushdi. Agarda o'quvchilarning shu xususiyatlarini birmabir tahlil qilsak, darsning ruhiy vaziyatlari sonsanoqzligini ko'ramiz. Biroq har hil dars o'tganda unga bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshish kerak bo'ladi bolalar bilan suhbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arziyas bo'lib tuyulgan o'zgarish suhbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan

boyitib yuboradi. Shuning uchun sinfdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish juda ahamiyatlidir: Buning uchun:

bolalarni kuzata bilish;

bolalar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;

bolalar hulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish; sinfnig o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoqlik va hozir javoblik ko'rsatish;

sinfdagi bugungi ruhiy muhitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib turgan bo'lsada, umumiy ruhiy holatini topish.

Har bir o'qituvchi o'ziga bolalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi lozim. Buning uchun:

o'z faoliyatini teztez tahlil qilishi;

o'quvchilar o'rniga o'zini qo'yishga harakat qilishi;

Hamkasblarining darslarini kuzatishi va o'zini ularga hiyoslashi; o'zida qaysi nuqsonlar bolalar bilan ishlashga salbiy ta'sir etayotganligini aniqlash;

hatolarni ochiq tan olish, biron bir narsani bilmaganda uni ochiq aytishdan uyalmasligi;

mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda bolalar bilan suhbatlashishni o'ziga har bir o'qituvchi odat qila olishi; agarda sinfda o'qituvchiga lahab qo'yishgan bo'lsa, undan hafa bo'lmaslik, bafurja o'tirib bu laqabni kelib chiqishi va mohiyatini aniqlashga harakat qilishi.

Bolalarni har handay savoliga javob berish va so'zlarini tinglashga harakat qilish. Agarda o'quvchi noto'g'ri gapirayotgan va o'zining fikrini bayon qilishga hiynalayotgan, o'qituvchining vaqti nihoyatda zih bo'lgan taqdirda ham unga etarlicha javob berib, Holganlarini kelgusi safar birgalikda muhokama etamiz, deb ogohlantirishi zarur.

Bunday ta'sir bola shahsiga e'tiborning eng muhim ko'rsatkichidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faol emasliklarining asosiy sababi — o'qituvchilarning bolalarning so'zlarini ohirigacha tinglay bilmasligidadir.

Shuning uchun o'qituvchi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zini sinab ko'rishi shart.⁶

Bolani ohirigacha eshitishga hamma vaqt ham qodirmisiz?

O'quvchi gapirayotganda, sizda uni to'htatishga ishtiyoj tug'ilmaydimi ?

Agar o'quvchi biron narsani bayon qilayotganda ortiqcha so'zlarni ko'p gapirsa, Tutilibtutilib tushuntirsa jahlingiz chiqmaydimi?

Bola gapirayotganda u bilan hayolan qo'shilmasligingizni ifoda etishi yoki etmasligini kuzatganmisiz?

Bolalar javobiga kattalarga hos talablar g'o'yayotganligingizni sezasizmi. O'qituvchi bolalar bilan muloqotni yo'lga g'o'yar ekan, ularning kayfiyatini tushunishga intilish, sinfdagi psixologik holatni ilg'ab olishga harakat qilish juda muhim. Shuni esda tutish kerakki, pedagogik jarayon ruhiy kechinmalari harakatchan, o'suvchan va o'zgaruvchandir. Bu holat o'qituvchidan habul qilishda yuksak madaniyatli bo'lishni talab qiladi. muloqotdagi ruhiy vaziyat, o'quvchi kayfiyatining o'zgarishi, bir tomondan sinfdagi ahvol, vaziyat haqida zarur ahborot bersa, ikkinchi tomondan ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashga ta'sir etadi. Sinfdagi doimiy va muntazam «ruhiy kuzatish», bolalar ruhiy holatini aniqlash o'zaro ta'sirning eng aniq vositalarini tanlash imkonini beradi.

O'qituvchining o'z ustida ishlashining quyidagicha tahminiy dasturini tavsiya etish mumkin pedagogik jarayonning har qanday vaziyatida bolalarni muntazam kuzatib turish;

hamkasblarining darslarini kuzatish va sinfdagi ahvolni doimiy ravishda aniqlashga harakat qilishi;

o'z darsida o'quvchilar ruhiy holatining mantihi va rivojlanishidagi o'sishini hisobga olish, o'zgarish sabablarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish;

darsdan so'ng o'quvchilar bilan suhbatlashish va dars davomida ulardagi ruhiy holatning o'zgarishiga nima sabab bo'lganini aniqlash;

⁶ V.A.Kan — Kalik., Ped. Tvorchevstvo. Moskva., izd. — «Pedagogika», 1990 god

dars boshida yoki o'quvchilar bilan shahsiy suhbat davomida ulardagi ruhiy holatning o'zgarishiga nima sabab bo'lganini aniqlashga harakat qilish; pedagogik kuzatuvchanlikni rivojlantirish.

Pedagogik muloqot jarayonida turlituman nizolar kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun esdan chiqarmaslik kerakki, nizo pedagogik savodsizlik oqibatida kelib chiqadi. Bunday holda u havflidir.

Tezlik bilan bunday nizoni oldini olishga harakat qilish kerak;

Nizo talablar, ko'rsatmalar, odat va ko'nikmalar to'qnashuvi natijasida bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda nizo sabablarini tahlil qilish lozim. Uning pedagogik jarayonda harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajarishi ehtimoldan holi emas.

shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz bolalardan hafa bo'lish huquqiga ega emasmiz. Pedagogik muloqotning o'ziga hosligi ham mana shunda.

O'quvchilarda o'qituvchilar bilan muloqot jarayonida munozara qilish ehtiyoji tuhilsa, bunga imkoniyat yaratishga intilish joiz. O'quvchi fikrining noto'g'riligini isbotlash uchun uning harakteridagi nuhsnlarni yuziga solish shart emas.

Ko'p hollarda yosh o'qituvchilar sho'h o'quvchilar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladilar. Agar siz bunday o'quvchilar qalbiga yo'l topmoqchi bo'lsangiz, o'quvchiga murojaatingizni «nima uchun», «Qanday qilib» kabi savollar bilan boshlashga harakat qiling. Bu muloqotning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin esda tutish kerakki, bunday o'quvchilar bilan suhbatda, jonli o'zaro munosabat ipining uzilishi havflidir. Muloqot doimiy va uzluksiz bo'lishi lozim. quyidagi reja bunga yordam beradi:

sizda o'quvchilar bilan muloqot jarayonida boshi berk ko'chaga kirish Hollari sodir bo'ladimi, buning sabablari nimada?

pedagogik ish faoliyatingizda bolalar bilan munosabatda ishingiz o'ngidan kelmagan paytlar bo'lganmi? Ularni qanday bartaraf etgansiz?

dars jarayonida har bir o'quvchi bilan ishlay olasizmi? Agar o'quvchi bilan tillasha olmayotganingizni sezsangiz, uni yo'lga qo'yishga harakat qilasizmi?

Bolalar bilan muloqotda tashabbuskor bo'lishni unutish, muloqotdagi tashabbuskorlik sizga bilish faoliyati ni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Muloqotda tashabbuskor bo'lish, bu:

kishilar bilan ruhiy alohoni tez yo'lga g'o'ya bilish;

shahslararo o'zaro ta'sirni maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish, shahslararo munosabatning zarur darajasiga erishish;

tug'ilayotgan pedagogik vazifalarga muvofiq ravishda o'quvchilar bilan o'zaro harakat muloqot shakllari, uslubi, usullarini qayta ko'rish;

o'quvchilarning pedagogik jarayandagi sustkashlikla barham berish, ularni faol muloqotga jalb etish.

Maktab o'quvchilari bilan muloqotni tashkil qilar ekanmiz, hizlarga oid ayrim o'ziga hos ruhiy hususiyatlarni bilish lozim: ular hishayajonga tez beriluvchan va juda tez ranjiydigan bo'lishadi. Ular o'qituvchi harakteridagi hususiyatni tez anglaydilar, daHal munosabatda murosasiz bo'ladilar. Ayni vaqtda bolalardan farqli o'laroq o'qituvchiga nisbatan munosabatlarini idora qila biladilar, ya'ni yashira oladilar.

Bolalar bilan muloqotda bir hillikdan voz kechish kerak. Bir hillik huyidagilarda namoyon bo'ladi:

O'zini tutishda;

O'quvchilar hulqiga e'tibor bermaslikka;

Darsni rejalashtirilgan chizma asosida olib borishga ko'rko'rona intilishda;

O'qituvchining dars jarayonida o'zini inson sifatida namoyon qilishga intilmasligida;

O'zida shunday kamchiliklar bormi. Bu hususda hamkasblar bilan fikrlashgan ma'qul. Mabodo kamchiliklar borligi sezilsa, undan qutulishga harakat qilish kerak.

Ayrim o'quvchilarga nisbatan jamoatchilikda tug'ilgan salbiy fikrlarni yo'qotishga intilish zarur. Bu faqat o'qituvchining ular bilan munosabatiga, balki jamoadagi umumiy muhitga salbiy ta'sir etishi mumkin. O'quvchi to'g'ri sidagi salbiy fikr shunday holatlarda tuqilishi shubhasiz:

o'zaro munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va bu masalani qayta ko'rib chiqishga harakat qilmaslik oqibatida sodir bo'ladi;
 mazkur sinfda ishlaydigan hamkasblar fikri bo'iicha muayyan o'quvchiga nisbatan tug'ilgan salbiy munosabat natijasida sodir bo'ladi;
 o'quvchining bo'sh o'zlashtirishi tufayli;
 o'quvchilar jamoasida mazkur o'quvchiga nisbatan tutilgan salbiy munosabat oqibatida; o'quvchining darsda o'zini ko'rsatishga intilishida;
 turli masalalar bo'yicha o'quvchining o'qituvchi bilan tortishuvi natijasida.

Yodda tutish kerakki, maktab o'quvchisining hulqi, bilimi, turmush tarzini asossiz tanhid qilaverish befoyda. Bunday tanqid o'quvchini o'zini o'zi mudofaa qiluvchi kishiga aylantirib qo'yadi. Ohiri oqibatda o'zo'ziga baho berishda tubanlashib ketishiga sabab bo'ladi:

bolalar bilan muloqot chog'ida tanqid elementi hukmronlik ruhida bo'lmasligi kerak, aks holda suhbat do'stona bo'lmaydi.

O'zingizni quyidagi o'lchovlar bo'yicha tahlil Qilib ko'ring; bolalar bilan muloqotda sizda tanhid qilish ruhi hukmron emasmi?

muloqot tizimingizda qanday talablar ko'proq: ta'kidlovchi, yo'naltiruvchi, betaraf. bir dars davomida o'rta hisobda necha marta tanbeh berasiz?

yangi mavzuni tushuntirish choqida yoki o'quvchi javobini tinglayotganda intizom buzuvchiga tanbeh berish uchun darsni to'htatishga hodirmisiz?

darsda bolalar bilan muloqotni tanqiddan boshlash kerak deb o'ylaysizmi?

darsda bo'sh o'quvchi va a'lochi o'quvchi bolalarni birbiriga qaramaqarshi qo'yishga yo'lqo'ymaysizmi?

intizom buzilgan chog'ida faqat tanbeh bilan cheklanish kerakmi?

Yoki vaziyatni hazil mutoyiba bilan tuzatish mumkin deb hisoblaysizmi? pedagogik muloqot jarayonida o'quvchilarga dahdaha qilish shartmi?

bolalar siz bilan muloqotda begonasirashayotganini yoki faqat ish yuzasidan murojaat qilishayotganini sezasizmi?

O'qituvchi ko'proq tabassum bilan sinfga kirsa, o'qituvchining sinfga kirish chog'idagi o'qituvchining tabassumi o'quvchilar bilan uchrashish huzur

baqshligidan dalolat beradi. Umuman o'qituvchining tabassumi umumiy ruhiy hushkayfiyatni yuzaga keltiradi, o'quvchilarni faol muloqotga chorlaydi.

O'zingizni kuzating:

darsda ko'p kulasizmi?

bolalar bilan birga ho's qilib kula olasizmi?

chehrangizdagi o'ychanlik va charchoq alomatlarini bolalarga bildirish shartmi?

Esda tuting, bolalar sizning kayfiyatingizdagi o'zgarishni o'qitayotgan faningiz bilan bohlaydilar, bu esa ularda salbiy fikrlar tug'ilishga olib keladi.

Bolalar bilan suHbat jarayonida ko'proq maqtov, qo'llab quvvatlovchi, rahbatlantiruvchi so'zlarni ishlatish zarur. Bu bolani o'z yutuHlarini sizning shahsingiz bilan bohlashiga olib keladi.

O'zingizni kuzating;

O'quvchilarni hamma vaqt ham to'g'ri javobi uchun

Nafaqat yaqshi o'quvchi, balki bo'sh o'qiydigan, lekin hatosini tuzatishga intilayotgan o'quvchini ham maqtashga tayyormisiz?

o'z bahoingizga «ofarin», «men buni ma'qullayman», «echimi to'g'ri», «rahmat» kabi so'zlarni qanchalik ko'p ishlatasiz;

Baholash chog'ida o'quvchining ismini aytib maqtagan ma'hulmi yoki familiyasinimi?

Bolalarning imkoniyatlariga ishonishingizni hamma vaqt ham sezdirasizmi?

Yodingizda bo'lsinki, maqtov, qo'llab-quvvatlash, do'stona muhithamkorlikdagi ijodiy ishning eng muhim shartidir.

Bolalar siz ularga qanday munosabatda ekanligingizni bilishlari kerak. Bolalarning ismlarini, ular shahsiga oid boshqa ma'lumotlarni bilib oling. Bu o'qituvchi uchun zarurdir.

O'quvchi bilan yakkamayakka suhbatlashish zaruriyati etilganini sezsangiz, bo'lg'usi suhbat rejasini tuzib chiqish kerak. Reja tuzayotganingizda quyidagilarni hisobga olish zarur:

suhbatdan asosiy maqsadingiz nima?

suhbat zarurmi yoki boshqa vositalardan foydalanish mumkinmi?

suhbat davomida handay savollar bermoqchisiz?

suhbat natijasi tarbiyaviy jihatdan foydali bo'lishiga ishonchingiz komilmi?

suhbatdan qanday salbiy yakun kutayapsiz

suhbatda qanday tarbiyaviy usul va yo'llardan foydalanmoqchisiz

suhbatni nimadan boshlaysiz va uni qanday o'tkazasiz

Endi yakkamayakka suhbat chog'ida o'quvchining o'zini tutishini ko'z oldingizga keltiring:

suhbat mavzusiga handay munosabat bildiradi, unga hatnasqadimi

suhbat aro yo'dda qolib ketmaydimi, agar shunday hol sodir bo'lsa, o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz agar o'quvchi janjal chiqarsa nima qilgan bo'lardingiz tashkil qilish uchun umumiy tavsiyanomalar bilan tanishing;berilgan savolning mohiyatini tushunib etmaguncha javob berishga shoshilmang;

biron narsa aytgingiz kelib tursa ham o'quvchining so'zini bo'lmang;bola e'tiroziga jalbilan javob bermang, bu muloqotga halaqit beradi;suhbatni ovozni balandlatib tugatmang; suhbat davomida o'quvchilar bilan munosabatingizni rivojlantirish yo'llarini ahtaring. O'quvchilar, ayniqsa, o'smirlar o'zlarini shahs sifatida tan olishlarini istlaydilar, mana shuning uchun ham muloqot jarayonida ularga shahs sifatida qarash kerak.

Esda tutish kerakki, sinf bilan ko'p yillik muloqot jarayonida muloqotning muayyan Holipi yuzaga keladi va uni biz yildan yilga takrorlayveramiz. Lekin bolalar o'zgarishmoqda, ular voyaga etishmoqda. Biz esao'zgarishni hisobga olmay, eskicha ishlashni davom ettiraveramiz.

Bolalarning ijtimoiyruhiy ehtiyojlaridagi eng mayda o'zgarishlarni sezishga harakat Qilish joiz. Yoddan chiqarmaslik kerakki, maktab o'quvchilarining yosh hususiyatlari o'zgarishi va bizning o'zgarmas pedagogik muloqot shaklimiz o'rtasida paydo bo'lgan qaramaqarshiliklar o'zaro munosabatlarning uzilishiga olib keladi va o'quvtarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qiladi.

Darsda kommunikativ tayyorlanishni unutmang!

Kommunikativ tayyorgarlik uchun quyidagi dasturni tavsiya etamiz:

Dars berishingiz kerak bo'lgan sinfni eslang;

Butunlay kommunikativ tayyorgarlik uchun esa quyidagi dasturni tavsiya etamiz: mazkur sinfda muloqotning qaysi tipidan foydalanish lozimligini ko'z oldingizga keltiring;

sinfning sizni va dars materialini handay qabul qilishini tasavvur eting;

konspekt ustida ishlar ekansiz, dars bo'laklarini rejalashtiring, sinfdagi umumiy ruhiy vaziyatni ko'z oldingizdan o'tkazing;

ayrim o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingizni ham unutmang, ayrim bolalarga nisbatan shakllangan bir qolipdagi fikrlardan voz keching;

nihoyat, darsda bo'ladigan muloqot muhitini hisqilishga harakat qiling. U sizga darsni ishonch bilan o'tkazishga yordam beradi.

Muloqot jarayonini tahlil qila biling. Agar darsda, tanaffusda kamchilik, uzilish sodir bo'lsa, u holda:pedagogik muloqotdagi hato sababini aniqlashga urining;sinf (o'quvchilar) bilan muloqotning eng zo'r modelini hayolan yaratishga intiling; mazkur sinf bilan navbatdagi muloqot davridagi vaziyatni ko'z oldingizga keltiring.

O'qituvchining sinf bilan muloqoti tizimiga, goho muloqotga halaHit beradigan ruhiy to'siqlar paydo bo'ladi. U darsning borishiga ham , o'qituvchilar va o'quvchilar kayfiyatiga ham salbiy ta'sir etadi.

Jamoadagi tarbiyaviy ishni rivojlantirayotganda umumiy pedagogik vazifalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiyruhiy tavsiyanomalar asosida ish olib borish. Buning uchun quyidagilarni hisobga olish lozim :

bolalar bilan o'zaro munosabatingizning umumiy darajasi;

sinfda boshqa o'qituvchilar bilan o'zaro munosabat turlari;

hamkorlik printsiplarining o'quvtarbiya jarayonida qo'llanish ehtimolligini;

sinfdagi shahslararo o'zaro munosabat tizimini, jamoaning jipslashganligi, uning faolligini; o'zaro harakatning umumiy, guruhiy va shahsiy shakllarini;

Hamkasblari bilan o'zaro munosabatga alohida e'tibor berish zarur: ular o'quvtarbiya jarayonining ijtimoiy ruhiy holatiga jiddiy ta'sir etishlari mumkin.

hamkasblar bilan o'zaro munosabatni tashkil qilishda quyidagilarni hisobga olishni maslahat beramiz: pedagogik jamoaning boshqa a'zolariga nisbatan hayrihoh bo'lish;

hamkasblaringiz bilan sizni yaqinlashtirishi mumkin bo'lgan omillarni ahtaring;

hamkorlikka intilish, hamkorlikka ijodiy faoliyat ko'rsatishga harakat qilish;

Hamkasblaringiz tajribasidan o'zingiz uchun eng himmatli, hiziharli, foydali bo'lgan tomonlarini topishga harakat qilish, faqat kamchilik ahtarishga o'rganmaslik; pedagogik jamoadagi o'zaro munosabat umumiy maktab ruhiyatiga ta'sir etadi, buni o'quvchilar ham ko'radilar, sizga va maktabdoshlaringizga nisbatan munosabatni shu asosda belgilaydilar.

O'z nutqingizni tuzating. U shahsingizning in'ikosidir. Iste'moldan chiqqan dahal so'zlarni ishlatmang, o'quvchilar yo'l qo'ygan nutqiy hatolarni takrorlamang; Nutqingizda parazit so'zlarni (qani, demak, umuman va boshqalar) qancha ishlatasiz;

Asosiy fikrdan chalgimagan holda nutqingizni davom ettira olasizmi?

- Nutq suratiga e'tibor bering: chunki, bilimni o'zlash tirish samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq;

- Nutqingizdan baqirib aytiladigan dag'al so'zlarni chiqarib tashlang, ular o'quvchilarga salbiy ta'sir qiladi;

Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish haqida ko'proq qayg'urish va o'ylash kerak. Buning uchun: tarbiyasi qiyin o'quvchi ruhiy yoki pedagogik hato oqibatidir; tarbiyasi qiyin o'quvchi salbiy illatlar ta'sirida bo'ladi, bu illatlarni boshqa o'qituvchilar, o'quvchilar, otaonalar shakllantirganlar; bolaga u yoki bu narsani zo'rlab qabul qildirib bo'lmaydi; tarbiyasi qiyin bola bilan muloqot qilishning eng samarali yo'llarini ahtarish zarur. Har bir o'qituvchi bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'rko'rona tadbiq qilish etarlimas. Bu talabalar oddiy talablar emas, balki harakat dasturidir. U o'qituvchiga o'quvtarbiya jarayoniga eng asosiy komil — inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi.

II.2.Pedagog muloqotining turli shakllarda rivojlanishi.


Muallim har qancha hushyor, ehtiyotkor bo'lsa ham sinfdagi hamma bolalarning ruhiy holatini, iztiroblarini bilmasligi mumkin. Bu ishda muallim sinf bolalar jamoasining ko'magiga tayanmog'i lozim. Sinf jamoasi boshiga tashvish tushgan bolaning holidan xabardor, unga hamdard bo'lishiga erishmoq kerak. Shunda muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala natijasida sodir bo'ladigan ayrim xatolarning oldini olish imkoni tug'iladi.

Bolaning ruhiy holatini tushunish, sinfdoshlarida unga nisbatan xayrixohlik, g'amxo'rlik xis - tuyg'usini uyg'otish o'qituvchining yuksak pedagogik, oxloqiy madaniyatidan dalolat beradi. Odobli, madaniyatli muallim bolalar bilan qo'pol muomala qilmaydi, o'quvchining «sirini» oshkor etmaydi, uning ustidan kulib, qalbini jarohatlamaydi.

Aksincha, fikr-mulohazasi qotib qolgan, bolalarning qalbi, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaydigan, hammaning xulqini bir xil qolipda baholaydigan muallim ko'pincha pedagogik muomala odobi normalarini bo'zadi, bolalar orasida obro' ham ololmaydi. Bunday muallim odatda, agar bola mo'min-qobil bo'lsa, uni manman, takkabur deb hisoblaydi. qobiliyatli, lekin sho'x bolalarni xush ko'rmaydi, natijada o'qituvchiga hurmatsizlik, konflikt mojarolar kelib chiqadi. Pedagogik axloq normalariga amal qilishda muallim odob-muomala qoidalarini bo'zmasligi, shu bilan birga muallimning hulqi o'quvchilarning xatti-harakatlarini, o'zaro munosabatlarini ham tartibga solib borishi haqida g'amxo'rlik qilmoq kerak.

O'qituvchi bolaning imkoniyatlarini, qobiliyatini hisobga olgan taqdirdagina undagi kamchiliklarni bartaraf eta oladi, uning pedagogik talablarini bola bajarishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda axloqiy tarbiya jarayoniga xos qarama-qarshiliklar manfaatdorlik, axloqiy-ruhiy omillar, shuningdek, muhit ta'sirida sodir bo'lishi mumkin.



Bunday faktorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bola tarbiyalanayotgan muhitdagi axloqiy tajriba, xulqiy odatlar jamiyatda qabo‘l qilingan umuminsoniy, milliy axloq mezonlarlariga mos kelmasligi;
- bolada ilgari shakllangan qiziqish va istaklar axloqiy tarbiyaning maqsadiga to‘g‘ri kelmasligi;
- bolaning irodasi, o‘zini tuta bilish darajasi bilan tarbiyachi-o‘qituvchining talablari bir-biriga mos kelmasligi;
- bolaning jamoada o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan intilishi bilan o‘z manfaatlarini jamoaning manfaatlariga bo‘ysundirish zarurligini bir-biriga mos kelmasligi;
- tarbiyachi, o‘qituvchining pedagogik, axloqiy madaniyat darajasi o‘qituvchilarni axloqiy tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo‘yilayotgan vazifalar, talablarga mos kelmasligi.

Bu qarama - qarshiliklar ob'ektiv yoki sub'ektiv harakterga ega bo‘lishi mumkin. Tarbiya jarayonida ular sub'ektivlikdan ob'ektivlikka o‘tishi yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Masalan, ota-onalarning axloqiy madaniyat darajasi sub'ektiv faktor hisoblansa ham u bola uchun ob'ektivlik harakteriga ega, chunki ota bilan onani tanlab olish mumkin emas.

Sub'ektiv qarama - qarshiliklar ham, ob'ektiv qarama-qarshiliklar ham jiddiylashib, nizolar chiqishiga olib kelishi mumkin. Burch bilan istak o‘rtasidagi, zarurat bilan erkinlik o‘rtasidagi ob'ektiv qarama - qarshiliklar natijasida yuzaga keladigan nizolarni, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, ko‘pincha, rivojlanish usuliga aylanadi. Bunday konfliktlarni ijobiy hal qilish natijasida shaxs o‘z tajribasida jamiyat o‘rtaga qo‘yayotgan axloqiy talaablarni jamoatchilik va o‘qituvchi ta'sirida anglab oladi.

Ob'ektiv qarama - qarshiliklar natijasida vujudga kelgan tushunmovchiliklarni oqilona bartaraf etish o‘qituvchining pedagogik madaniyatiga, muomala odobiga, tanlangan vositalarining to‘g‘riligiga bog‘liq. Sub'ektiv sabablarga ko‘ra paydo bo‘lib, janjallarga olib kelgan qarama - qarshiliklar salbiy natijalar beradi,

o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlik tug'diradi, o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida ruhiy to'siqlar hosil qiladi.

Muallimning talablari bolaning imkoniyat darajasidan past bo'lsa, undagi qobiliyatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi: agar muallimning talablari bolaning qobiliyati va imkoniyatlaridan ortiq bo'lsa, bolada o'z kuchiga ishonmaslik, ishdan o'zini chetga olish his-tuyg'usini paydo qiladi. Muallimning qattiqqo'lligi va talabchanligi axloqiy tarbiyaning boshqa vositalari bilan birga olib borilishi kerak.

Bola harakat qiladigan hayotiy vaziyatlarni, kutilmagan holatlarni oldindan aniqlash juda qiyin. Bolalarni xatolardan mutlaqo saqlab qolish ham muammo. Muallimning vazifasi o'qituvchiga o'z xatti-harakatlarining natijasini ko'z oldiga keltira bilishni va o'z hulqi uchun mas'ul ekanligini tushuntirish, anglatishdan iborat. Bu muallimning dam olish paytlarida ham, ukishdan tashqari vaqtlarda ham o'qituvchilar bilan o'zaro muomala odobida ma'lum axloqiy normalarga rioya qilishni talab etadi.

Pedagoglar jamoasida muomala odobi. Pedagoglar jamoasida o'qituvchilar o'rtasidagi muomala, munosabatlar insonparvarlik, demokratiklik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda, ikki xil bo'lib, biri - rasmiy, ikkinchisi – norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala, munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning (o'qituvchi odobining) qonuniyatlariga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirish talab etiladi. Bu o'z navbatida pedagoglar jamoasidan har bir bolaning tarbiyasi uchun yuksak mas'uliyatni, bolaga nisbatan bir xil talablar qo'yib, birgalikda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni taqozo etadi. o'qituvchi odobida

muallimlar o‘zaro muomal munosabatlarida amal qilishlari zarur bo‘lgan axloqiy talablar ishlab chiqilgan.

Darsda o‘quvchilarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi, axloqiy munosabatlar darajasini ko‘rsatadi. Maktabda o‘quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamaosini ishi. Pedagogik amaliyotda esa har bir muallim o‘quv intizomini saqlash uchun o‘zicha yo‘l tutadi: ba’zilar – darsni jonli, qiziqarli tashkil etish bilan: ba’zilar esa “ikki” baho qo‘yish, qattiqqo‘llik bilan dars jarayonida tartib intizomni ta'minlashga intiladilar. Bolaga duk - po‘pisa qilish, baqirish, hulqiga yomon baho qo‘yish bilan uni vaqtincha tiyish mumkin, lekin bu, ongli intizomni tarbiyalash usuli emas va pedagogik odob talablariga to‘g‘ri kelmaydi.

Pedagoglar jamoasi ma'lum talablar qo‘yish, faoliyatiga axloqiy baho berish yo‘li bilan o‘qituvchining xatti-harakatlarini yo‘naltirib, o‘zgartirib, to‘g‘rilab beradi. Pedagogik jarayonda muallimning erkin bo‘lishi bilan birga intizomga ongli ravishda rioya qilishi, ijodkorlik bilan bo‘ysunishi birga olib borilgan taqdirdagina pedagoglar jamoasining fikrini, axloqiy talablarini muallim ixtiyoriy ravishda bajaradi. Bunday muhit o‘qituvchida o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usini o‘stiradi.

Pedagoglar jamoasida o‘zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga amal qilishning muhim shartlaridan biridir. o‘zaro yordam va bir-biriga ishonch pedagogik, metodik adabiyotlardan bilib olgan yangiliklarni o‘zaro baham ko‘rish, tajriba almashish kabilarda yaqqol namayon bo‘ladi. Kishi bir so‘m pulini sherigi bilan baham ko‘rsa, uning cho‘ntagidagi pul miqdori kamayadi. Lekin kishi o‘zidagi bilimni boshqaga o‘rgatsa, bilimlar soni ko‘payadi, o‘rgatgan kishining bilimi kamayib qolmaydi, aksincha mustahkamlanadi. Pedagoglar jamoasida yangi g‘oyalar, bilimlarni o‘zaro almashish muomala odobining qonun-qoidasi darajasiga ko‘tarilishi har bir muallim buni o‘z xohishi, qalb amri bilan bajarishi hamma uchun foydalidir. Muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadiga, o‘qituvchilarning axloqiy saviyasiga bog‘liq.

Ota-onalar bilan muomala odobi. Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o‘qituvchining tayyorgarligi, ma'naviy qiyofasi va o‘z

vazifasini qanday bajarishigagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, bola yashaydigan muhit va oilaning ta'siriga ham bog‘liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy - axloqiy yo‘nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo‘lib, bola unda axloqiy qoidalarni, urf - odatlarni bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi.

Har bir inson yoshlikda ona qo‘lida tarbiya oladi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o‘rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy na milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo‘ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy fazilatlarini tarkib topadi. Bola maktabga qadam qo‘yganda yaxshi va yomon narsalar haqida tasavvurga ega bo‘ladi. o‘qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va bu tushunchalar, axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog‘i kerak. Shuning uchun ham muallim o‘quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog‘lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Bolani maktabga, ukishga qabo‘l qilayotganda muallim uning ota - onasi bilan tanishadi. O‘qituvchi bilan ota – onaning muomalasi, aloqalari ana shu tanishuvdan boshlanadi, muallim bilan ota - onalar o‘rtasida axloqiy - pedagogik munosabatlar bola maktabni bitirguncha davom etadi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ko‘pincha tarbiyasi qiyin bolalarning ota - onasi bilan aloqa o‘rnatadilar. Muallimning ota - onaga e'tibori ko‘ninch bolaning yomon hulqi, salbiy qiliqlari bilan bog‘lig‘ bo‘ladi. Agar bola mo‘min - qobil, odobli bo‘lsa, ayrim muallimlar uning ota - onasi, oiladagi tarbiyasiga deyarli umuman e'tibor bermaydilar.

Tarbiyaning samaradorligi ko‘pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo‘ya bilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqqa o‘qituvchi bilan ota - onalarning o‘zaro munosabatlari, muomalasi masalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib bolani axloqiy

tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki salbiy sifatlarni qayta tarbiyalashi lozim bo‘ladi.

Otasi yoki onasidan ajralgan bola bilan muallimning o‘zaro muomalasi, jiddiy, nozik ish. Ota yoki onaning vafot etishi bolaga og‘ir qayg‘u, iztirob keltiradi, bunday kulfatga ko‘nikish bola uchun juda qiyin kechadi. Bunday bolalar o‘z dardi, o‘z kayg‘usi bilan ovora, atrofda sodir bo‘layotgan voqyea - hodisalarga befarq qaraydigan bo‘lib, yakkalanib qoladi. Muallim bunday bolaga g‘amxo‘r bo‘lishi, yaxshi muomala qilishi uning ruhini ko‘taradi. Bunday paytda muallimning o‘ta rasmiy muomalasi yaxshi oqibatga olib kelmaydi, bolaning irodasini bo‘shashtirib, qiyinchiliklarga bardosh berolmaydigan qilib qo‘yadi. Bolalar orasida shundaylari ham borki, bo‘lar otasi yoki onasi tirik bo‘la turib o‘z farzandlarini tashlab ketganlardir. Eng ishongan va yaxshi ko‘rgan, eng yaqin odamidan ajralib qolgan bolaga qo‘pol muomala qilish uni ranjitadi, qalbini jarohatlaydi. Kichkinagina haqsizlikka ham chiday olmaydigan, har bir narsadan xavfsiraydigan, kattalarning gapiga quloq solmaydigan, qo‘rs, o‘jar, o‘zboshimcha bo‘lib qoladi. Muallimning o‘ta xushyorlik, e‘tibor bilan to‘g‘ri muomala qilishi natijasidagina ularda kattalarga ishonch qayg‘usi qayta tiklanishi mumkin.

Voqyeiy hakoya. Karim beshinchi sinfda ikkinchi yilga qoldirildi. Yangi sinf rahbari Sh. ayrim o‘qituvchilar va bolaning ukishiga kasal onasi e‘tibor bermay qo‘yganliklarini aniqladi. Karim darslarni muntazam qoldirar, uy vazifalarini bajarmas edi. Muallima Karimning oilasiga borib, u har kuni ertalab maktabga ketishi va uyga kech qaytishini bilib oldi. Onasi esa kasalligi tufayli bolasi nima ish bilan shug‘ullanayotganini nazorat etolmas edi. Bir kuni sinf rahbari Karimning uyiga ertaroq borib, uni maktabga birga olib ketmoqchi bo‘ldi. Dars boshlanishiga hali bir soatdan ko‘proq vaqt bo‘lishiga qaramay Karim uyda yuk edi. Karimlar oilasi yashaydigan tuman qo‘rg‘oni uncha katta bo‘lmaganligi uchun o‘smirlar ko‘proq boradigan bozorchaga kirib o‘tdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki. Karim darvozadan kirgan joyda shaftoli sotib turgan edi. Karim bir necha kundan beri bozorda meva sotayotgani ma'lum bo‘ldi. Bu mevalarni Karim shahar chekkasidagi jamoa xo‘jaligining bog‘idan o‘g‘irlab olib kelayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi

sinf rahbari. Shanba kuni sinf rahbarining bir soatgina darsi bor edi. Maktabga borishdan oldin u yana bozorga yo‘l oldi. Karim bozorda ham, uyida ham yuk edi. Sinf rahbari jamoa xo‘jaligining bog‘iga qarab yurdi. Karimni kiyimlari yirtilgan, qo‘l - oyoqlari kir, iflos, yig‘lagan, nochor ahvolda uchratdi. qorovul uning qulidan mahkam ushlab, ismi, familiyasi kimligini, qaysi maktabda ukishini surishtirayottan ekan. qorovulxonada kichikroq xaltada Karim daraxtdan o‘zib olgan olmalar turardi. Muallimasini ko‘rgach bola:

Nega hadeb mening orqamdan yurasiz, mendan nima istaysiz? - deb baqirdi.

Bu sizning bolangizmi? – qorovul muallimadan so‘radi.

Ha, mening o‘g‘lim, – dedi sinf rahbari.

O‘g‘lingiz uchun tovon to‘lashingiz zarur.

Qorovul bunday paytda ota - onaga aytish lozim bo‘lgan gaplarni aytdi. Bu og‘ir gaplarni eshitganidanmi, Karimga rahmi kelibmi yoki kasal onasiga rahmi kelganidanmi muallimaning ko‘zlariga yosh keldi.

Mayli, o‘zilgan mevalar uchun tovonni to‘layman. U boshqa bunday qilmaydi. To‘g‘rimi, bolam? – deb Karimga qaradi. Bola ishonib – ishonmay muallimaning ko‘zlaridagi yoshga hayratlanib qaradi. Muallima sumkachasidan pul chiqarib o‘zatdi. Bu voqyea Karimga qattiq ta'sir etdi. Sinf rahbari bolaning qo‘lidan ushlab, yo‘lda unga hyech nima demay, o‘z uyiga olib bordi, yuvintirdi, maktabga birga bordi. Maktabda oxirgi dars bo‘layotgan edi. Darsdan so‘ng ular birga bolanint uyiga bordilar. Karim muallimaga «Bu voqyeani onamga ayt mang, men bu ishni boshqa qilmayman», – dedi. Darhaqiqat, bu voqyea sinf rahbari bilan o‘quvchi orasida sir bo‘lib qoldi. Shundan buyon ko‘p yillar o‘tdi. Karimning onasi vafot etdi. U maktabni bitirib, qishloq xo‘jalik institutiga ukishga kirdi. Sinf rahbarining qilgan muomalasi, yaxshiligi bir umrga uning yodida qoldi.

Har bir bolani yaxshi odam qilib tarbiyalashda muallim xam, ota - ona ham manfaatdor. Maqsad birligi o‘qituvchini ota - onalar bilan bog‘lab turadi.

Bolani yoqtirsa ham, yoqtirmasa ham ota - onasi bilan aloqada bo‘lish muallimning vazifasi. Muallimning ota - onalar orasidagi obro‘si ko‘pincha ukiuvchining fikri, mulohazalari asosida shakllanadi. Vaholanki, bolaning fikri

xato bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, muallimning ota - onalar to'g'risidagi fikri ham bolaning suvrati va siyratidan olgan taassurotlariga asoslanadi.

O'qituvchi odobi muallimda ham, ota - onada ham xato fikr, noto'g'ri taassurot qoldirmasligini taqozo qiladi.

Bu prinsipga avvalo muallim amal qilishi lozim, chunki u pedagog - tarbiyachi sifatida o'zini tutishi, mabodo ota - onalarning u haqidagi biror fikri xatoligini sezsa ham, mayda - chuyda o'tkinchi gaplarga berilib ketmasligi zarur. Muallim ko'nglida kek saqlashi bola bilan muomalasida axloq qoidalarining bo'zilishiga sabab bo'ladi.

Muallimning ota - onalar bilan to'g'ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota - onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidenie, radio oroqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi ham muomala odobiga ta'sir etadi. Bu hol muallimdan yuksak pedagogik madaniyatli bo'lishini taqozo qiladi.

Turli sabablarga ko'ra bolaning bir maktabdan ikkinchisiga o'tib ukish hollari pedagogik amaliyotda uchrab turadi. o'quvchi bolalarning yangi jamoasiga qo'shilib ketgunicha ancha vaqt o'tadi. Bu davrda sodir bo'ladigan voqyealar o'qituvchi bilan ota - onalarning muomala, munosabatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Voqyeiy hikoya. Boshlang'ich maktabni a'lochilar qatorida bitirgan Shahlo beshinchi sinfda ukishni boshqa shahardagi maktabda davom ettirdi. Shahloning kundalik daftarida matematikadan «uch» baholar paydo bo'layotgani ota - onasini tashvishga solib qo'ydi. Shahlo bir hafta darsga bora olmagan kunlari o'tilgan mavzularni bilmasligi bunga sabab bo'lgan, muallimga esa bu gapni aytishga cho'chiyotgan ekan. Shahloning onasi maktabga borib, sinf rahbari bilan maslahatlashdi. Ertasi kuni matematika o'qituvchisi: «Uyingda men haqimda har xil bo'lmag'ur gaplarni tarqatibsan», - deb Shahloga gapirdi. Onasining matematika o'qituvchisi bilan uchrashuvi ham dilsiyohlik bilan tugadi.

- Qizingiz «uch» olayotgani nega sizni buncha tashvishga solyapti. Bu yerda hatto, eng qobiliyatli bolalar ham matematikadan besh» ololmaydi, - dag'dag'a qildi muallima.

- Mening qizim hali siz uchun qobiliyatsiz o'quvchi bo'lib qoldimi - bo'sh kelmadi Shahloning onasi.

Natija shu bo'ldiki, Shahloning matematikadan bilimi ham, baholari ham pasayib ketdi. Muallimning adolatsizligi o'quvchining qalbidagi ishonchni ham barbod qildi, matematikani o'rganishdan ixlosi qaytdi. Pedagogik - odobning muhim tamoyillaridan biriga - maktab bilan oilaning hamfikrliligi, hamkorligiga putur yetdi.

Muallimning ota - onalar bilan aloqa qilish yo'llari, vositalari xilma - xildir. o'quvchining kundalik daftarga baho qo'yish, turli xabarlarni bitish, xat yozish, ota - onalar majlisi yoki boshqa yig'inlarda uchrashish, o'quvchining uyiga borish kabilar shular jumlasidandir.

O'quvchining kundalik daftaridan muallim axloqiy tarbiyaning, bolaga ta'sir o'tkazishning muhim vositasi sifatida foydalanishi mumkin va lozim. Aks holda u dars jadvali va uy vazifalari yoziladigan oddiy bir daftarga aylanib qoladi. Ayrim o'qituvchilar bolaning kundalik daftarga hatto, olgan bahosini qo'yishga ham e'tibor bermaydilar, sinf rahbarlari ham bu masalaga turlicha yondoshadilar. Ba'zilar bolaning hafta davomida olgan hamma baholarini yozib qo'ysa, ba'zilar faqat «ikki» yoki faqat «to'rt», «besh» baholarini va qoldirgan darslarinigina yozib, to'g'risiga imzo to'yadilar. Shu bilan birga kundalik daftarga bolaning hulqi va ukishda erishgan yutuqlari, maslahat va takliflarini yozadigan sinf rahbarlari ham bor. Bolaning kundalik daftarida uchraydigan: «Darslarda faolroq qatnashadigan bo'lding, muallimlaring sendan mamnun», «Fizika va biologiyadan dars qoldirgan kunlaringda o'tilgan mavzularni o'zlashtirib ol, boshqa fanlardan biliming yaxshi», «Jamoatchilik ishlariga, mehnatga munosabatingni o'zgartir, faolroq bo'l», «Sinfdoshlaring bilan xushmuomala bo'l o'zingni tuta bil, irodangni ishga sol», «Uyda nima ishlar qilishingni menga aytib tur» kabi yozuvlar shundan

dalolat beradi. Muallim o'quvchi bilan gaplashayottandek tuyulsa ham, aslida bu yozuvlar ota - onalar uchun ham eslatmadir.

Voqyeiy hikoya. yettinchi sinf o'quvchisi To'lqin darslarni qoldiradigan odat chiqardi. Sinf rahbari bilan qo'pol muomala qiladigan bo'lib qoldi. Muallim «Onangga ayt, maktabga kelsin», - deb tayinladi unga. Lekin onasi maktabga kelmadi. Sinf rahbari bo'layotgan voqyealarni ochiq - oydin aytish uchun To'lqin bilan birga uning uyiga bordi. To'lqinning onasi og'ir kasalga chalinib qolganini ko'rib, bu fikridan qaytdi. Onasiga To'lqin qo'li gul bola ekanligini aytib, uniki uyidan xabar olish, oilasiga qanday yordam kerakligini bilish uchun kelganini aytdi. Muallimning bu so'zlarini eshitib, To'lqin qattiq ta'sirlandi. Sinf rahbari hovlidan chiqib ketayotganida izidan yetib kelgan To'lqin hayajondan ko'ziga yosh olib, sinf rahbaridan kechirim so'radi va boshqa o'zboshimchalik, intizomsizlik qilmasligini aytdi. Shundan so'ng uning yurish - turishi, hulqida katta o'zgarish bo'ldi. Ayrim sho'xliklari uchrab tursa ham muallimlar bilan yaxshi muomalada bo'lib, ukishni bitirdi. U qarshi shahridagi zavodlardan birida katta usta bo'lib ishlamoqda.

Shunday ota - onalar ham borki, bo'lar - bo'lmasga bolasini jazolayveradi. Bunday vaziyatlarda muallim bolaning barcha xatolarini hadeb ota - onasiga aytaverishi shart emas. Shuningdek, hal etilgan mojarolar, ilgari bo'lib o'tgan voqyealarni ham ota - onaga yetkazaverish yaxshi natija bermaydi.

Tarbiya masalasida muallimniig va ota - onalarning fikrlari bir - biriga to'g'ri kelmasa ham bu sohada ular birga bajargan yaxshi ishlarini yukqa chiqarmaslik lozim. Pedagogik odob muallimdan ota - onalar bilan faqat ularning ko'magi zarur bo'lgan paytlardagina emas, balki muntazam ravishda aloqada, yaxshi muomalada bo'lib turishni talab etadi. Shu bilan, birga ota-onalar jamoatchiligining yordami bilan muallim bolaning hulqiga, axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan yoki maktab, muallimlar haqida nojo'ya so'zlarni aytib yuradigan ota - onalarga ta'sir etishi mumkin. Ayrim noqobil ota - onaning xatosini tashkil qilishga sinf ota - onalar jamoasini jalb etish ham maqsadga munofiqdir. Ayrim jamoatchi faollar ularga muallimdan ko'ra ko'proq ta'sir o'tkazishi mumkin.

Voqeyiy hikoya. Sanjar uy vazifalarini bajarmaydigan, darsga kechikib keladigan odat chiqardi. 5-sinf rahbari Sanjarning uyiga borib yashash, dars tayyorlash sharoitlarini bilib kelish uchun ota - onalar komitetining a'zosi Jo'raevni uning uyiga yubordi. Jo'raev Sanjarning uy sharoitidan xabardor bo'lgach, ota - onalar majlisida shunday dedi: «Bolani uyda nima qilayotganini otasi ham, onasi ham nazorat qilmas ekan. Uy vazifalarini ham Sanjar esiga tushganida va hohlaganida tayyorlaydi. Ba'zan uylariga mehmon kelib, ayniqsa, ziyofatbozlik, ulfatchilik avjiga chiqqan paytlarda dars tayyorlaydimi, ukishga boradimi - bunga e'tibor beradigan odam uyda topilmas ekan. Majlisda qatnashayotgan Sanjarning otasi norozilik bildirmoqchi bo'ldi: «Men ertadan kechgacha ishda bo'lsam, nima qilishim kerak?» - dedi. Ota - onalardan boshqa biri o'rnidan turib: «Nima, siz boshqalarni ishlamaydigan, bekorchi odamlar deb o'ylaysizmi?» - deb unga e'tiroz bildirdi. Bu majlisda noqobil otaga sinf rahbarining bir o'zidan ko'ra ota - onalarning ta'siri kuchliroq, bo'ldi.

Ayrim ota - onalarda, muallim mening o'g'lim yoki qizimga nisbatan noto'g'ri muomala, adolatsizlik qilyapti, degan taassurot mavjud bo'ladi. Bola, ko'pincha, o'zining biror nojo'ya hatti - harakatini, yomon qilg'ini o'zicha izohlab, to'g'ri deb hisoblab, muallimning tanbehini esa o'ziga nisbatan adolatsizlik deb, xato o'ylaydi va bu o'zining xato fikrini ota - onasiga yetkazadi. Ota - ona ham bolaning so'ziga ishonib, voqeya nima ekanligini aniqlamay, muallimni yomonlash ya'ni u haqida salbiy fikrga borish yo'liga o'tadi. Pedagogik odobning talablaridan biri shundan iboratki, muallim ota - onalar bilan muomala qilganida bu holatni e'tibordan qochirmasligi lozim. Pedagogik muomala odobining talablaridan biri o'qituvchining sabr - toqatli bo'lmog'i lozimdir. Ota - onaning maktab va boshqa o'qituvchilar haqidagi tanqidiy fikr - mulohazalarini diqqat bilan eshitish, hatto bunday tanqid noto'g'ri bo'lgan taqdirda ham, muallim ota - ona bilan muomalada o'zini tuta bilmog'i shart.

Lekin bunday muallim ota - onaning u haqida yoki boshqa muallimlar haqida aytayottan fikrlariga befarq qarashi kerak, degan xulosa chiqmaydi. Bunday

paytlarda prinsipsizlik ya'ni adolatsizlik ko'rsatish jamoatchilik orasida o'qituvchi haqida noto'g'ri fikr paydo bo'lishiga olib keladi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Dunyodagi kasblar orasida eng murakkabi o'qituvchilik kasbi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchidan ijobiy sifatlarni rivojlantirishi, aksincha salbiy qusurlarini bartaraf etish uchun yillar mobaynida tinimsiz harakat qiladi.

Muloqot va muomala jarayoni ham o'ziga xoslikka ega bo'lgani holda o'qituvchidan turli xil xolatda muloqotga kirishishini talab etadi.

O'qituvchining muloqot madaniyati bir kunda, yoki bitta fanni o'qitish bilan chegaralanmaydi. U shunday murakkab xususiyatga egaki, ko'chuvchan, ohandor, muloyimlik, qat'iylik, ta'kidlovchi, yalinuvchi, egiluvchanlik, mulohazalilik talab etadi.

Axborot oqimi va ommaviy madaniyat keskin rivojlanayotgan shiddatkor davrda o'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish o'ta dalzarb va murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi.

Biz o'z kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki o'qituvchi har qanday vaziyatda holatda ham o'qituvchi sifatida muloqot olib borilayotgan ob'ektlarning psixologik xolatlarini hisobga olsagina o'zida shakllangan muloqot madaniyatini yana ham yuksaltirar ekan. Shu bilan birga o'qituvchi mehnati qanchalik serqirra bo'lmasin baribir u o'zida muloqot madaniyatini rivojlantirib borishi uchun muntazam badiiy adabiyot o'qib borishi, tajribali pedagoglarning muomala va muloqot jarayonlarini muntazam kuzatib borishlari lozim ekan.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot madaniyatini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq deb hisobladik:

1. Muloqot madaniyati yillar mobaynida rivojlanishni hisobga olsak, avvalo oila a'zolarining muloqot jarayonlari qanday xususiyatga egaligi ham, muomala va muloqotning qanday shakllanishiga asos bo'lganini hisbga olish
2. O'qituvchi qay darajada o'z kasbiga mehr qo'ganligiga bog'liq. Chunki inson o'z kasbini chin dildan sevsa va undan faxrlansa albatta shu kasbning barcha jihatlarini mukammal rivojlantirishga intilib yashaydi.

3. O'qituvchi o'z muloqot madaniyatida muloqot olib borayotgan shaxslarning individual psixik xolatlarini, muloqot mavzusidagi muammoning mohiyatini to'la anglagani holda muloqotga kirishishi lozim.
4. Pedagog jamoadagi shaxslar aro muloqot madaniyatining qanday ko'rinishdaligi albatta har bir o'qituvchidagi muloqot madaniyatini rivojlanishidga olib kelishini inobatga olish lozim.
5. Har qanday keskin vaziyatlarda ham muloqotni to'g'ri tashkil etish o'qituvchidagi kasbiy madaniyatning qanchalik yuqori darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak muloqot madaniyatini qanday rivojlantirish avvalo har bir shaxsning ichki xoxishi intilishiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston, 1992, 46b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997, 2029b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997, 3160b.
4. "O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqida" qonun. – T.: O'zbekiston, 1989.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim // Ta'lim taraqqiyoti. 7maxsus son, T., "Sharq" NMK, 1999, 480b
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1tom. T., O'zbekiston, 1996, 364b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., O'zbekiston, 1998, 686b.
8. Karimov I.A. Kamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. T., O'zbekiston, 2001,30b.
9. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. T., O'zbekiston, 1998, 2526 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998, 686b.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston, 1999, 48b.
12. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. 13.00.01. Ped. fan. dok. diss. Avtoreferati, - T., 2003, 44b.
13. Akimova M.K., Kozlova V.T. Individualnost uchahyegosya i individualno'y podxod. M., Znanie, 1992, s.80.
14. Gorskaya G.I., Churakova R.G. Maktabda o'quvtarbiya jarayonini tashkil etish. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashridan tarjima. T.,O'qituvchi, 1990, 216b.
15. Do'stmurodova O. Ona tili ta'limi yangi pedagogik texnologiyasining mohiyati. – T.: RTM, 2005. – 36 b.
16. Jo'raev A. Ta'lim texnologiyalari. – Buxoro: Universitet, 2005. – 76 b.
17. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari //

- Xalq ta'limi. – 1997. – № 2.
18. Ziyodova T.U, Xolmatova U., Jumaniyozova T. O'qituvchi kitobi. T., 2002 yil 136 bet.
 19. Yo'ldoshev K., B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. avtoreferati. T., 1997-49b.
 20. Yo'ldoshev M. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari // Xalq ta'limi. – 1999. – № 4.
 21. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., +osimov B., Axmedov S. 9sinf uchun adabiyot. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, 2nashri. T. "Ma'naviyat" 2003 yil 158bet.
 22. Mirkosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fanl. d-ri ... dis...T., 1995, 254 b.
 23. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – T. 1992. .
 24. Mustaqil fikrlashni shakllantirish omillari // Viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2005 yil 13 dekabr). – Buxoro, 2005. – 116 b.
 25. Musurmonova O.M. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T., 1995.
 26. Ne'matov H., /ulomov A. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rgatish. – T.: RTM, 1992. – 30 b.
 27. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – +arshi: Nasaf, 2000. – 13 b.
 28. Ochilov M. O'qitish usuli – pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti // Xalq ta'limi. – 1999. – № 6.
 29. Roziqov O., Og'aeov S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. T., Fan, 1997, 256b.
 30. Roziqov O., Og'aeov S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999. –
 31. Saidahmedov N., Abdurahmonov O. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. – 27 b.

32. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: “Fan”, 2005 . 206 b.
33. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000. – 46 b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

34. <http://www.bilimdon.uz>
35. <http://www.ziyonet.uz>
36. <http://www.edu.uz>
37. <http://www.local.uz>
38. <http://www.fikr.uz>
39. <http://www.pedagog.uz>

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
I BOB. O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik – psixologik asoslari.	
I.1. O'qituvchida muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari ...	7-16
I.2. O'qituvchi muloqotida muomala madaniyatining shakllanishi	17-30
II BOB. Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning mezonlari.	
II.1. Pedagog muloqotining mezonlari.....	31-40
II.2. Pedagog muloqotining turli shakllarda rivojlanishi.....	41-53
Xulosa.....	54-55
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	56-58
Ilovalar.	